

AUTIZM SPEKTRLI BOLALARNING IJTIMOIYLASHUVIDAGI QIYINCHILIKLAR : NAZARIY VA AMALIY TAHLIL

I.S.Isodullayeva - FarDU o'qituvchisi

Z.Odilova - FarDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada autizm spektr buzilishi bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvidagi asosiy qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Autizm bolalarning muloqot qilishdagi muammolari tengdoshlari bilan munosabat o'rnatishdagi qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Autizmli bolalarning muloqot qilishdagi muammolari tengdoshlari bilan munosabat o'rnatishdagi qiyinchiliklari hamda ijtimoiy muhitga moslashish jarayonlari o'rganilgan. Shuningdek ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagogik- psixologik va logopedik yondashuvlarning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Autizm spektr buzilishi, ijtimoiylashuv, muloqot, ijtimoiy ko'nikmalar, autizm bolalar, sinaptik bog'lanish.

Kirish

Bugungi kunda jamiyatda bolalarning to'laqonli rivojlanishi va ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashuvi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, autizm spektr buzilishiga ega bo'lgan bolalarning ijtimoiy hayotga birikib ketishi alohida dolzarb muammo sifatida e'tibor talab etadi. Autizm -spektri bu bolalarning muloqot qilish, jamiyat bilan aloqalarni o'rnatish va atrof -muhit bilan o'zaro birikib ketish jarayonlarida turli darajadagi qiyinchiliklar bilan namoyon bo'ladigan rivojlanish xususiyatidir. Autizm spektrli bolalar ko'pincha tengdoshlari bilan muloqot qilishda, his-tuyg'ularni tushunishda, ijtimoiy qodalgarga amal qilishda hamda jamoaga moslashishda ko'plab qiyinchiliklarga duch keladilar.

Asosiy qism

Autizm atamasi grekcha so'zdan olingan bo'lib „autos“ o'zi, o'zim degan ma'noni bildiradi. Autizm atamasi fanga dastlab bundan 40yil oldin kirib kelgan. Ushbu atama birinchi bor shveytsar psixiatri Eygen Bleyler tomonidan 1910-yilda shizofreniya kasalligining belgilaridan biri sifatida ishlatilgan. 1943- yilda esa ingliz psixiatri Leo Kenner davolash amaliyotida 11 bolaning xulq-atvori ,yurish-turishdagi o'xshash belgilarni kuzatib, “ Ilk yoshdagi bolalar autizmi “ atamasini fanga kiritgan. U kuzatgan barcha bolalardagi belgilar hozirgi kunda ham autism belgilari sifatida o'rganilmoqda. Faqatgina 1981 – yildan boshlab “bolalar autizmi “ mustaqil nuqson sifatida qabul etildi. Hozrgi kunda bolalar autizmi bosh miyaning rivojlanishidagi kamchiliklardan kelib chiqadigan mustaqil nuqson sifatida o'rganilmoqda. Autizm kasalligining kelib chiqishiga asosiy sabab – bosh miyadagi sinaptik bog'lanishlarni yuzaga kelishida ta'sir ko'rsatuvchi gen faoliyatining mutatsiyaga uchrashi hamda

oiladagi ota-onalar munosabati yashash sharoitini o‘rab turgan muhit ham bir qancha ta’sir o‘tkazadi.

Autizm -bu insonning asab tizimi rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab holat bo‘lib u asosan bola rivojlanishining dastlabki yillarida namoyon bo‘ladi. Autizmda bolaning muloqot qilish qobiliyati, ijtimoiy munosabatlari va xulq atvori o‘ziga xos tarzda rivojlanadi. Bu holat ko‘pincha Autizm spektr buzilishi deb ataladi, chunki u turli darajada va turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Autizm odatda bola 2-3 yoshga yetganda sezila boshlaydi. Ba’zi hollarda esa alomatlar undan ham erta paydo bo‘lishi mumkin. Autizmga ega bolalar atrofdagi odamlar bilan muloqot qilishda qiyinchilikka duch keladi, ko‘pincha o‘z dunyosiga berilib ketadi va boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunishda qiynaladi. Ular ko‘zga qarab gapirmasligi, ismini aytganda javob bermasligi yoki oddiy ijtimoiy o‘yinlarga qiziqmasligi mumkin. Autizmning asosiy belgilaridan biri- nutq va kommunikatsiya muammolari. Ba’zi hollarda nutq rivojlanishi kechikadi yoki umuman rivojlanmasligi mumkin. Ayrim bolalar esa so‘zlarni takrorlashga moyil bo‘ladi. Masalan bola o‘ziga berilgan savolga javob berish o‘rniga savolni takrorlab aytishi mumkin.

Autizmli bolalarda ijtimoiy munosabatlar ham boshqacha bo‘ladi. Ular tengdoshlari bilan o‘ynashni yoqtirmasligi, yolg‘iz o‘yinlarni afzal ko‘rishi yoki odamlarning his-tuyg‘ularini tushunmasligi mumkin. Kimdir xafa bo‘lsa yoki quvonsa autizmli bola bunga odatiy tarzda javob bermasligi mumkin, shuningdek ular imo- ishora, mimika va tana harakatlari orqali muloqot qilishda ham qiyinchilik sezadi. Autizmli bolalarning xulq-atvori ham o‘ziga xos bo‘ladi, ular ko‘pincha bir xil harakatni takrorlashadi. Masalan qo‘lni tez-tez silkitish aylanish narsalarni ketma-ket terib chiqish kabi harakatlar kuzatiladi. Bundan tashqari ular kundalik tartibning o‘zgarishini ham yoqtirmaydi. Agar odatdagi tartib o‘zgarsa bola bezovtalanishi yoki jahli chiqishi mumkin.

Autizm spektr buzilishi bo‘lgan bolalarda ijtimoiylashuv-ya’ni odamlar bilan muloqot qilish jamiyatga moslashish va ijtimoiy munosabatlarni tushunish jarayoni ko‘pincha qiyin kechadi. Bu bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalar yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lishi mumkin. Autizm bolalar boshqalar bilan muloqot qilishda qiynaladilar. Ular ko‘pincha suhbatni boshlashda yoki davom ettirishni bilmaydi. Ba’zi hollarda nutq kech rivojlanadi yoki umuman bo‘lmasligi ham mumkin. Bunday bolalar boshqalarning yuz ifodasi imo-ishora yoki ovoz ohangini tushunishda qiyinchilikka duch keladi. Masalan odam xafa yoki xursand ekanini aniqlash ularga qiyin bo‘lishi mumkin. Autizm spektrli bolalar ko‘pincha ko‘z bilan aloqa qilishdan qochadi. Bu esa muloqotni qiyinlashtiradi va ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta’sir qiladi. Ko‘plab autizmli bolalar tengdoshlari bilan o‘ynash yoki do‘stlashishda qiynaladilar. Ular ko‘pincha yakka holda o‘ynashni afzal ko‘rishadi. Autizm spektrli bolalar ba’zan boshqa insonlarning his-tuyg‘ularini tushunishda qiynaladi. Shu sababli ularning reaksiyasi ba’zan boshqalarga g‘alati ko‘rinishi mumkin. Yangi

muhit yangi odamlar yoki kundalik tartibning o'zgarishi autizmli bolalarda stress va havotirni keltirib chiqarishi mumkin. Autizm spektrli bolalarda ijtimoiylashuv jarayoni murakkab bo'lishi mumkin ammo to'g'ri pedagogik yondashuv korreksion mashg'ulotlar va oilaning qo'llab-quvvatlashi orqali ularning ijtimoiy ko'nikmlarini rivojlantirish mumkin.

Xulosa

Autizm spektr buzilishi bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvi murakkab va nozik jarayon bo'lib, u muloqot, ijtimoiy munosabatlar va muhitga moslashish jarayonlaridagi o'ziga xos qiyinchiliklar bilan tavsiflanadi. Autizmli bolalarda ijtimoiy signallarni tushunish, tengdoshlari bilan muloqotga kirishish hamda jamoaga qo'shilib ketish darajasi pastroq bo'ladi. Bu esa ularning jamiyat bilan birlashib ketishiga to'sqinlik qiladi. To'g'ri tashkil etilgan pedagogik, psixologik yondashuvlar orqali autizmli bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishi mumkin. Ayniqsa individual yondashuv, maxsus metodikalar va ijtimoiy o'yinlar va oilaning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'xtaboyeva I.N. Autizm spektr buzilishiga ega bolalar: o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari va ijtimoiy integratsiya masalalari.
2. Tuzelova A.M. Autizm spektr buzilishiga ega bolalar bilan ishlashning psixologik-pedagogik asoslari.
3. Ergasheva F.B. Autizm spektrdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvi : muammo va imkoniyatlar.
4. I.S. Isodullayeva. Nutqning ontogenezda rivojlanishi. O'qub qo'llanma. Farg'ona 2024.